

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:  
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

**Researchbib Impact factor: 11.79/2023**

**SJIF 2024 = 5.444**

**Том 2, Выпуск 5, 31 Май**

**MAMLAKAT MILLIY HISOBLAR TIZIMI VA UNING TASHKIL  
ETILISHI TAHLILI**

**Hojiqulova Feruza Dona qizi**

Termiz davlat universiteti ‘Iqtisodiyot’ kafedrasи o‘qituvchi.

**Kenjayeva Saboxat Safarovna**

Termiz davlat universiteti ‘Iqtisodiyot’ yo‘nalishi 2-kurs talabasi.

**ANNOTATSIYA**

Maqolada, dastlab, mamlakatlarda milliy hisoblar shakllanishi haqida umumiy ma'lumot beriladi. So'ngra, milliy hisoblar tizimining qarorlar asosida shakllanib takomillashib borishi va yalpi ichki mahsulotni hisoblashning xatolarini bartaraf qilishdagi yechimlar orqali rivojlantirish tarixi tahlili qanday tarzda ta'minlash yoritib beriladi. Shuningdek, ayni vaqtida bu sohalarda mamlakat yalpi ichki mahsulotining hajmini oshirishga va hisoblash jarayonining samarali yechimlarga asosiy e'tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: Milliy hisobchilik, milliy hisoblar tizimi, yalpi ichki mahsulot, daromad.

**ANALYSIS OF NATIONAL ACCOUNTS SYSTEM OF THE COUNTRY  
AND ITS ORGANIZATION**

The article first provides general information about the formation of national accounts in countries. Then, how to provide the analysis of the history of the development of the system of national accounts on the basis of decisions and improvement through solutions to eliminate errors of gross domestic product calculation. Also, at the same time, in these areas, the main attention is paid to increasing the size of the country's gross domestic product and effective solutions of the calculation process.

Key words: National accounting, system of national accounts, gross domestic product, income.

Milliy hisobchilik deganda, mamlakat miqyosida bo‘layotgan iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi, bu ko‘rsatkichlarni hisoblash metodologiyasi va usullari tushuniladi. Milliy hisobchilik, dastlabki davrlarda (XVII-XIX asr) asosan mamlakat miqyosida yaratilgan milliy daromadni hisoblashga qaratilgan edi. MHT iqtisodiyoti bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotga asoslangan rivojlangan mamlakatlarda vujudga keldi. Dastlab bu mamlakatlarda hisobot tizimiga zarurat unchalik sezilmadi. Lekin, ilg‘or

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

texnologiyalarning rivojlanishi, kapitalistlarning yuqori darajada foyda olishga intilishlari tovarlar ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasida nomutanosibliklarni keltirib chiqara boshladi. Natijada, talab va taklif o'rtasidagi muvozanat buzilib, iqtisodiy inqirozlar sodir bo'la boshladi. Bunday inqirozlar XIX-asrning oxiri va XX asrning boshlariga kelib bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotga ega mamlakatlarni qamrab ola boshladi. Ayniqsa, 1929-1933 yillardagi "buyuk inqiroz" kapital egalarining sillasini quritdi, bu mamlakatlarda ijtimoiy va siyosiy noroziliklar yuzaga kela boshladi. Pirovardida, aholining katta qatlamlari qashshoqlashdi, mulkdorlar esa ishlab chiqargan mahsulotlarini sota olmay katta zarar ko'rdilar. Mamlakatda talab va taklif o'rtasidagi muvozanatni tiklash juda katta mablag'larni va vaqtini talab etadi. Bunday inqirozlarga asosiy sabab, bu mamlakatlarda mamlakat iqtisodiyotiga chetdan ta'sir o'tkazish (davlat idoralari tomonidan uni boshqarish yoki to'g'ri izga yo'naltirish) inkor qilinib kelinar edi. Shu davrga qadar bu mamlakatlarda "bozor iqtisodiyotining tabiatida bunday inqirozlarni oldini olish mexanizmi bor, bozorda narxning o'zgarishi talab va taklifni muvozanatlashtiradi" degan nazariya hukm surardi. Lekin, 1929-1933-yillardagi "buyuk depressiya" ushbu nazariyada kamchiliklar mavjud ekanligini, bozor munosabatlariga asoslangan mamlakatlarda ham davlat iqtisodiyotni tartibga solib borishi lozimligini, bunday inqirozlarning oldini olish yo'llarini o'rganish zarurligini ko'rsatdi. Bozorlarda talab va taklif o'rtasidagi muvozanat buzilganda bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot ishlamasligi va bu muvozanatni tiklashda davlatning aralashuvi zarurligi o'z isbotini topdi. Mamlakatda bozor muvozanatini tiklash uchun mamlakat miqyosida zarur choralar ko'rish va uning oldini olish mexanizmlarini ishlab chiqish zaruratini tug'dirdi. Bunday ishlarni amalga oshirish mamlakat miqyosida hisob-kitoblarni yuritishni taqozo etadi. Chunki, to'laqonli axborotsiz mamlakat iqtisodiyotini ma'lum bir yo'lga yo'naltirish va boshqarish mumkin emas. Shu davrdan boshlab, kapitalistik dunyodagi mamlakatlarda mamlakat miqyosida hisobotlar yuritish zaruratitan olindi va bu sohadagi ishlar keng ko'lamda rivojlana boshladi.

Shundan kelib chiqib, davlat o'zining "faol iqtisodiy roli"ni bajarishi uchun mamlakatning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini hisoblaydigan tizimni – Milliy hisoblar tizimini yaratish zaruriyati tug'ildi. Dastlabki vaqtida Milliy hisoblar tizimi milliy daromad ko'rsatkichini hisoblashga qaratildi. XX asrning 30-yillarida Angliya, Avstriya, Fransiya, Norvegiya, Germaniya va AQShda milliy daromad

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

ko'rsatkichi hisoblandi, 40-50-yillarga kelib Milliy hisoblar tizimini qo'llash kengaya bordi. Ikkinchi jahon urushi yakunlanganidan so'ng davlatni boshqarish tizimida Milliy hisoblar tizimini qo'llash zaruriyati yanada kuchaydi.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar sifatida milliy mahsulot, milliy daromad, iste'mol, jamg'arma (kapital qo'yilmalar) va hokazolar hisoblana boshlandi. 1951-yilda Parijda Yevropa iqtisodiy hamjamiyatiniig Milliy hisoblar tizimi standarti loyihasi qabul qilindi. 1953-yil BMT ning statistika bo'limi tomonidan amaliyatga tadbiq etish uchun Milliy hisoblar tizimining standarti qabul qilindi. Ushbu standartlar 1968, 1993 va 2008-yillarda yangilanib, takomillashtirildi.

1968-yil BMTning statistika komissiyasi 15 yillik tajriba asosida Milliy hisoblar tizimining yangi xalqaro standartini ishlab chiqdi va u 1993-yilning fevralga qadar qo'llanildi. 1993-yil fevralda BMT statistika komissiyasining navbatdagi sessiyasida Milliy hisoblar tizimining yangi xalqaro andozasi qabul qilindi, undagi yangiliklardan biri sifatida makroiqtisodiy statistikaning ko'rsatkichlari qatoriga to'lov balanslari, davlat budgeti ko'rsatkichlari kiritildi. Yevropa Ittifoqi 1995-yilda BMTning Milliy hisoblar tizimi andozasi asosida "Yevropa milliy hisoblar tizimi"ni qabul qildi.

"MHT-2008" xalqaro standarti 2009-yilda BMT Statistika komissiyasining 40-sessiyasida qabul qilinib, ushbu qo'llanmada bir qator muhim iqtisodiy jarayonlarning statistik ko'rsatkichlarda ifodalash uslubiyati takomillashtirilgan

Hozirgi zamon milliy hisobchiligi nazariy va amaliy jihatdan o'ta yuksak darajada rivojlangan hisobot tizimi bo'lib, mamlakatdagi va uning tarmoqlari va sektorlaridagi iqtisodiy va sotsial jarayonlarni to'la aks ettirishga qaratilgan. Bu tizimda qabul qilingan hisoblash usul va uslublari, tasniflar va tushunchalar boshqa hisobot (buxgalteriya, moliya, bank hisobotlari va boshqalar) va statistika tizimlari(moliya, bank, bojxona, baho va h.k. statistikasi) bilan uyg'unlashtirib tuzilgan. Hozirgi vaqtda amaliyotda ishlatilayotgan milliy hisobchilik tizimi "Milliy hisoblar tizimi" (MHT) deb nom olgan. Bu tizim hozirgi vaqtda xalqaro standart sifatida er yuzining 160 dan ortiq mamlakatlar amaliyotida ishlatilyapti. Bu tizim, iqtisodiyoti bozor iqtisodiga asoslangan mamlakatlarda bo'layotgan iqtisodiy va sotsial jarayonlarni to'laqonli aks ettirishga qaratilgan. MHTda mamlakatda bo'layotgan ishlab chiqarish, iste'mol, jamg'arish, investitsiya jarayonlari, mamlakatning moliyaviy holati va chet el bilan bo'lgan iqtisodiy hamkorligining natijalari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan schyotlarda

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:  
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**  
**Researchbib Impact factor: 11.79/2023  
SJIF 2024 = 5.444**  
**Том 2, Выпуск 5, 31 Май**

ifodalanadi.

Milliy hisoblar tizimi – iqtisodiy faoliyat natijalarini ifodalovchi hisoblar va jadvallarning muayyan to‘plami shaklida tuzilgan, o‘zaro bog‘liq statistik ko‘rsatkichlarni o‘zida aks ettiradigan xalqaro uslubiyat bo‘lib, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining barcha jahbalarini o‘rganishga xizmat qiladi.

Milliy hisoblar tizimi – mamlakat iqtisodiy rivojlanishining xalqaro statistika amaliyotida qabul qilingan umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlari tizimidir. Shuningdek, Milliy hisoblar tizimi bozor munosabatlari sharoitida mamlakatlarning makrodarajadagi milliy mahsulotini va milliy daromadini hisoblash metodologiyasi hamdir. Milliy hisoblar tizimi - yaxlit jamlanma iqtisodiy statistik ko‘rsatkichlar to‘plami bo‘lib, mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish, natijada yalpi milliy daromadni yaratish, ularni taqsimlash, qayta taqsimlash va iste’mol jarayonlarini o‘zida mujassamlashtirgan hisobot va statistika tizimidir. Ushbu tizimda ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish, iste’mol, investitsiya, jamg‘arish jarayonlari ketma-ket “T” ko‘rinishidagi “resurslar va ishlatalishi” jadvallarini tuzish orqali hisoblarda tasvirlanadi. MHT balans statistikasining rivojlanishi, milliy daromad, milliy boylik, jamg‘arma kabi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni aniqlash ishlari evolyutsiyasining natijasidir.

1-jadval.

**Milliy hisoblar tizimining asosiy schyotlari<sup>1</sup>**

**1. Tovarlar va xizmatlar schyoti**

Resurslar	Foydalanish
Yalpi ishlab chiqarish	Oraliq iste’mol
Tovarlar va xizmatlar importi	Pirovard iste’molga xarajatlar
Mahsulotlarga soliqlar	Yalpi jamg‘arish
Mahsulotlarga subsidiyalar (-)	Tovarlar va xizmatlar eksporti

**2. Ishlab chiqarish schyoti**

Resurslar	Foydalanish
Yalpi ishlab chiqarish	Oraliq iste’mol
Mahsulotlarga soliqlar	Yalpi ichki mahsulot
Mahsulotlarga subsidiyalar (-)	

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:  
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**  
**Researchbib Impact factor: 11.79/2023  
SJIF 2024 = 5.444**  
**Том 2, Выпуск 5, 31 Май**

**3. Daromadlarning shakllanish schyoti**

Resurslar	Foydalanish
Yalpi ichki mahsulot	Ishchilarga mehnat haqi
Ishlab chiqarishga subsidiyalar	Ishlab chiqarishga soliqlar
	Yalpi foyda/aralash daromad

**4. Birlamchi daromadlarni taqsimlash schyoti**

Resurslar	Foydalanish
Yalpi foyda/aralash daromad	Ishlab chiqarishga subsidiyalar
Ishchilarning mehnat haqi	Tashqi dunyoga berilgan mulkdan daromadlar
Ishlab chiqarishga soliqlar	Birlamchi daromadlar saldosи (Yalpi milliy daromad)
Tashqi dunyodan olingan mulkdan daromadlar	

**5. Daromadlarni ikkilamchi taqsimlash schyoti**

Resurslar	Foydalanish
Birlamchi daromadlar saldosи (Yalpi milliy daromad)	Tashqi dunyodan berilgan joriy transfertlar
Tashqi dunyodan olingan joriy transfertlar	Yalpi milliy tasarrufdagi daromad

**6. Yalpi milliy ixtiyordagi daromaddan foydalanish schyoti**

Resurslar	Foydalanish
Yalpi milliy tasarrufdagi daromad	Pirovard iste'molga xarajatlar
	uy xo'jaliklari
	davlat
	notijorat tashkilotlari
	Yalpi milliy jamg'arish

**7. Kapital bilan operatsiyalar schyoti**

Resurslar	Foydalanish
Yalpi milliy jamg'arish	Asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi
	Moddiy aylanma mablag'lar zahiralarining o'zgarishi

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

	Qimmatbaho boyliklarning sof sotib olinishi
	Sof qarz berish (+) / qarz olish (-)

Milliy hisoblar tizimi jarayonlarining turli bosqichlarini va iqtisodiyotdagi eng muhim o‘zaro aloqalarni aks ettiradigan hisob-kitoblar va jadvallar to‘plamidan iborat. Uning muhim belgisi xalq xo‘jaligi faoliyati yakunlarida moddiy ishlab chiqarishdan tashqari nomoddiy xizmatlar sohalarini ham aks ettirishidir. Bunday yondoshuvda butun mamlakat iqtisodiy faoliyatining umumlashtiruvchi tavsiflariga erishiladi. Milliy hisoblar tizimi negizini ishlab chiqarish, iste’mol, jamg‘arish vaxo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi real munosabatlar jarayonida qayta taqsimlash tamoyili tashkil etadi. Bu tizim yer va kapitalni mehnat bilan teng darajada qiymatni yaratishda qatnashuvchi omillar tarzida qaraydigan konsepsiyaga asoslanadi.

Milliy hisoblar tizimida iqtisodiy faoliyatni umumlashtiruvchi ko‘rsatkich yalpi ichki mahsulot (YaIM)dir. Uning asosida qo‘shilgan qiymat, ya’ni shu jarayonda iste’mol qilingan mahsulotlar va xizmatlar qiymatiga (“oraliq iste’mol” qiymatiga) qo‘shilgan qiymat turadi. Milliy iqtisodiyot darajasida ichki iqtisodiyot faoliyati natijalarining jamlanma hisoblamalari tuziladi: YaIMning shakllanishi va undan foydalanishning jami bosqichlarini nazarda tutishga imkoniyat yaratadigan (har bir schyotda, bir tomondan, ko‘rilayotgan ko‘rsatkichni tashkil etadigan resurslar, ikkinchi tomondan – ulardan foydalanish keltiriladi) tovarlar va xizmatlar hisobi; ishlab chiqarish hisobi; daromadlarning hosil bo‘lish hisobi; daromadlarning taqsimlanishi hisobi; daromadlardan foydalanish hisobi; kapital xarajatlar hisobi; moliyaviy hisob. Ular tashqi iqtisodiy aloqalar hisobi, boshqa hisoblar va balanslar bilan to‘ldiriladi. Bu hisoblarda kengaygan takror ishlab chiqarish jarayonining hamma bosqichlari aks etishi tufayli, yalpi ichki mahsulot hajmini uch xil: ishlab chiqarish, taqsimot va pirovard foydalanish usullarini qo‘llab aniqlash imkoniyati yaratiladi. Milliy hisoblar tizimida iqtisodiy faoliyatning barcha turlari foydali natija bilan tugallanadi, deb qaraladi, demak xalq xo‘jaligidagi barcha mehnat harajatlari foydali mehnatdir. Milliy hisoblar tizimi ishlab chiqarishdan boshlanib, daromadlarning shakllanishi, ularning taqsimlanishiga o‘tadi va mavjud pul qiymati (zargarlik mahsulotlarisiz), turli qimmatbaho qog‘ozlar, o‘rtalig‘i va qisqa muddatli zayomlar ko‘rinishida iqtisodiyotni moliyaviy nuqtai nazardan ifodalash bilan

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

yakunlanadi.

Barcha mamlakatlar o‘z iqtisodiy salohiyati va aholi turmush darajasi ko‘rsatkichlarini Milliy hisoblar tizimi yordamida hisoblaydilar. BMTning xalqaro tashkilotlari bunday tizimga o‘tishni har tomonlama rag‘batlantirmoqdalar.

Sobiq ittifoq davrida makroiqtisodiyotni o‘rganish va tahlil qilish uchun xalq xo‘jaligi balansi ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanilgan. Ularning asosida A.Smit, K.Marksning siyosiy iqtisod ta’limotlari: xalq xo‘jaligini moddiy ne’mat ishlab chiqaradigan va ishlab chiqarmaydigan sohalarga ajratish, unumli va unumsiz mehnat, ja’mi ijtimoiy mahsulot, milliy daromadni yaratish, uni taqsimlash va pirovard foydalanish nazariyalari yotar edi. Unda xo‘jalik yurituvchi subyektlar orasidan mavjud aloqalar, aholi farovonligi va turmush darajasiga baho berish, mehnatga haq to‘lash, davlat budgeti, kredit, to‘lov balansi kabi tushunchalar va tasniflashlar yetarlicha yoritilmas edi. Milliy hisoblar tizimi esa bu kamchiliklarni bartaraf etib, bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotni har taraflama boshqarish imkoniyatini yaratadi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, hisob va statistikani xalqaro andozalarga o‘tkazishga kirishdi va shu maqsadda 1994-yilda “O‘zbekistonda xalqaro amaliyotda qabul qilingan hisob va statistika tizimiga o‘tish davlat dasturi” ishlab chiqildi va u bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston milliy statistika amaliyotiga MHT xalqaro uslubiyatini joriy qilish ishlari Vazirlar Mahkamasining 1994-yildagi 433-sonli qaroriga asosan boshlangan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmoni, 2019-yil 9-apreldagi “Davlat boshqaruving ochiqligi va shaffofligini ta’minlash hamda mamlakatning statistika salohiyatini oshirish yuzasidan qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi hamda 2020-yil 3-avgustdagagi “O‘zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari MHTni statistika amaliyotiga keng joriy qilishni yanada jadallashtirishda huquqiy asos bo‘lib xizmat qildi.

2017-2022-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan milliy hisoblar ko‘rsatkichlarini hisoblash uslubiyatlari “MHT-2008” xalqaro standarti qoidalariga muvofiqlashtirildi hamda ular asosida keng

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:  
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**  
**Researchbib Impact factor: 11.79/2023**  
**SJIF 2024 = 5.444**  
**Том 2, Выпуск 5, 31 Май**

ko‘lamlı ishlar amalga oshirildi.

MHT, davlat moliyasi statistikasi va to‘lov balansi ko‘rsatkichlari o‘zaro muvofiqlashtirildi. Bunda YaIM hisob-kitoblarini davlat moliyasi statistikasi va to‘lov balansi ma’lumotlariga muvofiq ravishda amalga oshirish va qo‘mitaning rasmiy veb-saytida e’lon qilib borish yo‘lga qo‘yildi. Ushbu hisob-kitoblar asosida YaIM va u bilan bog‘liq makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning 2010-yildan yillik va 2017-yildan choraklik dinamik qatorlari shakllantirildi va e’lon qilina boshlandi.

2019-yil 19-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida milliy hisoblarning zamonaviy tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 691-sonli qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar qamrovining to‘liqligini ta’minlash va yalpi ichki mahsulotni yakuniy iste’mol usulida hisoblash metodologiyasini takomillashtirishni nazarda tutuvchi milliy hisoblar zamonaviy tizimini 2020-yil 1-yanvardan boshlab bosqichma-bosqich joriy etila boshlandi.

Mazkur qarorga ko‘ra, yakuniy iste’mol usuli bo‘yicha YaIMning batafsillashtirilgan hisob-kitoblari quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- uy xo‘jaliklarining yakuniy iste’mol xarajatlari hisob-kitoblarini “Maqsadlar bo‘yicha individual iste’mol tasnifi” (MIIT)ga asosan;
- davlat boshqaruvi organlarining yakuniy iste’mol xarajatlari hisob-kitoblarini “Davlat boshqaruvi organlari funksiyalarining tasnifi” (DBOFT)ga asosan;
- asosiy kapitalning yalpi jamg‘arilishi hisob-kitoblarini nomoliyaviy aktivlar tasnifiga asosan amalga oshiriladi.
- Statistika agentligi dastlabki ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda O‘zbekistonda yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmi joriy narxlarda 1 066,6 trln so‘mni tashkil etdi (2-jadval). Bu o‘rtacha almashuv kursi bo‘yicha 90,9 mlrd AQSh dollariga teng.
- 2-jadval.

**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida O‘zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsuloti hajmi, joriy narxlarda, mlrd.so‘m<sup>2</sup>**

Ko‘rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023
<b>I. YaIM, jami</b>	<b>426641, 0</b>	<b>532712, 5</b>	<b>605514, 9</b>	<b>738425, 2</b>	<b>896617, 9</b>	<b>1066569, 0</b>

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:  
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	381065, 2	487449, 8	561153, 4	686432, 4	836839, 7	1008423, 1
Mahsulotlarga sof soliqlar	45 575,8	45 262,7	44 361,5	51 992,8	59 778,2	58 145,9
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>381065, 2</b>	<b>487449, 8</b>	<b>561153, 4</b>	<b>686432, 4</b>	<b>836839, 7</b>	<b>1008423, 1</b>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	113327, 4	129885, 0	150493, 7	181787, 7	208809, 2	245222,5
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	116225, 2	164635, 7	187610, 0	232535, 7	280057, 7	325 378,4
sanoat	94266,7	134185, 8	150275, 1	186978, 2	225771, 2	262824,2
qurilish	21958,5	30449,9	37334,8	45557,4	54286,4	62554,2
Xizmatlar	151512, 6	192929, 1	223049, 8	272109, 1	347972, 9	437822,2
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	26510,1	32179,7	36662,8	46750,0	58020,3	72382,4
tashish va saqlash, axborot va aloqa	30095,3	36028,6	38313,1	47934,3	60027,1	77833,1
boshqa xizmat tarmoqlari	94907,3	124720, 8	148073, 9	177424, 8	229925, 5	287606,7

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, 2018-yilda mamlakatimiz Yalpi ichki mahsuloti tarkibida tarmoqlarning qo'shilgan qiymati ulushi 89,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 94,5 foizni tashkil etgan.Statistika agentligi dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda O'zbekistonda yalpi ichki mahsuloti hajmi 2022-yilga nisbatan 6 foizga o'sgan (3-jadval).

• 3-jadval

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

## • O‘zbekistonda yalpi ichki mahsuloti hajmining o‘sish sur’ati<sup>3</sup>

Ko‘rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023
<b>I. YaIM, jami</b>	<b>105,5</b>	<b>106,0</b>	<b>102,0</b>	<b>107,4</b>	<b>105,7</b>	<b>106,0</b>
Tarmoqlarning yalpi qo‘silgan qiymati	105,5	106,1	102,0	107,6	106,3	105,9
Mahsulotlarga sof soliqlar	105,9	104,7	101,6	104,6	97,7	107,4
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo‘silgan qiymati</b>	<b>105,5</b>	<b>106,1</b>	<b>102,0</b>	<b>107,6</b>	<b>106,3</b>	<b>105,9</b>
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	100,3	103,1	102,9	104,0	103,6	104,1
Sanoat (qurilishni qo‘songan holda)	111,5	108,3	102,5	108,4	105,6	106,1
sanoat	110,8	105,0	100,9	108,8	105,3	106,0
qurilish	114,3	122,9	109,5	106,8	106,6	106,4
Xizmatlar	105,7	106,7	101,1	109,5	108,7	106,8
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	105,3	107,1	101,3	113,6	109,5	110,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	106,8	106,6	99,9	117,8	114,0	112,3
boshqa xizmat tarmoqlari	105,5	106,7	101,4	106,3	107,0	104,5

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari
2. Hojiqulova F. MAMLAKATIMIZDA SOLIQ TIZIMINI TAKOMILLASHTRISH MASALALARI //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. C7. – С. 378-382.

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari